
Aholini ro'yxatga olishning asosiy tamoyillari

- 1. Markazlashtirish.** Aholini ro'yxatga olishni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy shartlaridan biridir.
- 2. Aholini ro'yxatga olishning muntazamligi.** BMT tavsiyalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi belgilangan.
- 3. Aholini ro'yxatga olish maxsus tayyorlangan mutaxassislar - hisobchilar tomonidan o'tkazilishi.** Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko'p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar, talabalar ham kiritilishi mumkin.
- 4. Aholini ro'yxatga olishni aniq bir muddatda o'tkazish.** Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10-12 kun talab etiladi. Aholini ro'yxatga olish bir necha kun davomida o'tkazilsa ham, ma'lumotlar aniq bir vaqtda - ko'pincha aholini ro'yxatga olishning birinchi kunining 00-00 soatdagi holati bo'yicha qayd etiladi. **Bu aholini ro'yxatga olishning nozik vaqti,** deb ham ataladi.

2022-03-09 12:20:12